

TARIXIY ASARLARNI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI: USLUB, OBRAZLILIK VA MILLIY KOLORIT

Umida Abdullayeva Abdumutal qizi

O'zMU tayanch doktoranti

umidaabdullayeva0306@icloud.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarixiy asarlarning tarjimasini murakkab va ko'p qirrali lingvistik hamda madaniy jarayon sifatida tahlil qilinadi. Tarjimada muallif uslubining saqlanishi, obrazlilik vositalarining adekvat talqini va milliy koloritning tabiiy uzatilishi kabi jihatlar alohida urg'uga ega. Muallif tarjima jarayonining madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o'rni, tarjimonning dunyoqarashi va individual yondashuvlari, shuningdek, pragmatik adaptatsiya zarurati haqida batafsil to'xtaladi. Maqolada Yujin Nayda, Roman Jakobson kabi tarjima nazariyotchilari fikrlariga tayanilgan holda ekvivalentlik, stilizatsiya va zamonaviylashtirish kabi tarjima strategiyalari muhokama qilinadi. Abdurauf Fitrat va G'afur G'ulom singari o'zbek tarjimonlarining faoliyati misolida milliy ruhni saqlagan holda muvaffaqiyatli tarjima namunalariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, tarixiy matnlarni tarjima qilishda lingvistik, madaniy va tarixiy bilimlarning uyg'unligi zarurligi ta'kidlanadi. Maqola tarixiy asar tarjimasini samarali amalga oshirish uchun kompleks yondashuvning muhimligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: tarixiy asar, tarjima nazariyasi, madaniyatlararo kommunikatsiya, ekvivalentlik, stilizatsiya, milliy kolorit, pragmatik adaptatsiya.

Tarixiy asarlarning tarjimasini murakkab lingvistik va madaniy jarayon bo'lib, bunda asarning uslubi, obrazlilik xususiyatlari hamda milliy koloritning adekvat uzatilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Uslubiy jihatdan, tarjimon muallifning individual yozuv uslubini saqlab qolishi, leksik-semantik o'ziga xosliklarni iloji boricha aniq aks ettirishi lozim¹. Obrazlilik esa metaforalar, simvolik ma'nolar hamda

¹ N.M.O'rmonova. Tarjimada tarixiy-arxaiik leksikani aks ettirish prinsiplari va tarjima aniqligi (o'zbek klassik adabiyotidan fransuz tiliga qilingan tarjimalar tahlili asosida), Fil.fan.nomzodi dissertatsiyasi, Toshkent, 2008

tarixiy konnotatsiyalarning to'g'ri talqin qilinishini talab qiladi, chunki ular asarning estetik va semantik yaxlitligini ta'minlaydi. Milliy kolorit masalasida esa tarjimon muayyan xalqning tarixiy-madaniy kontekstini chuqur anglab, etnografik tafsilotlarni, folklor elementlarini va lingvistik realiyalarni buzib ko'rsatmasdan, ularni maqsad til tizimida tabiiy va adekvat uzatishi zarur. Shu bois, tarixiy asar tarjimasi nafaqat til va adabiyotga oid bilimlarni, balki madaniyatshunoslik, tarix hamda semiotika singari fanlar bilan uzviy aloqador yondashuvni talab etadi.

Tarjima qilinayotgan asar madaniyati (manba tiliga mansub muhit) va tarjimani qabul qiluvchi muhit madaniyati (tarjima amalga oshirilayotgan til va madaniyat) o'rtasidagi muqarrar tafovutlar sababli, manba matni ikki xil qarash tizimi – mahalliy va “begona” dunyoqarash sistemalarining parallel qabul qilinishi sifatida namoyon bo'ladi². Bunda asliy matn muallifi hamda tarjimon, shaxs sifatida o'ziga xos dunyoqarash, obrazlilik darajasi, hissiylik kabi turli xususiyatlarga ega bo'lib, bu holat manba asliyatiga ham, uning tarjimasiga ham ta'sir ko'rsatadi va ular o'rtasida muayyan tafovutlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Shunday ekan, tarjimonning vazifasi – manba tilining madaniy asoslarini anglash va muallif maqsadini to'g'ri yetkazib berishning individual usulini shakllantirishdan iborat bo'lib, bu jarayonda ikkita turli til va madaniyatni imkon qadar mohirona va aniq yaqinlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu vazifani amalga oshirish quyidagi ikki yo'nalishda olib boriladi:

1. “Begona” muhitning real voqeligini qayta yaratish;
2. Ushbu voqelik faktlarini qayta idrok etish va ularni qabul qiluvchi muhit auditoriyasi uchun tushunarli bo'lgan til vositalari orqali tasvirlash.

Manba matnida aks ettirilgan “begona” muhit realiyalarini aniq qayta yaratish uchun uning madaniy va tarixiy rivojlanish xususiyatlarini batafsil o'rganish talab etiladi. Ushbu realiyalarni aks ettirish jarayonida semantik birliklarning uzatilishida jiddiy qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin, chunki har bir xalqning madaniy, tarixiy, etnografik va boshqa o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, bu tarjima jarayonida hisobga

² Ю.Е.Комлева. Проблемы и методы исторического перевода. ИСТОРИЧЕСКИЙ ПЕРЕВОД. 2008. Стр, 202

olinishi kerak. Tarjima jarayonida turli tillar tizimi va madaniy an'analar solishtiriladi, bu esa matnning pragmatik adaptatsiyasini talab qiladi. Bunday moslashuv manba matnining butun axborot hajmini qabul qiluvchi muhit auditoriyasiga yetkazish va manba muallifi erishmoqchi bo'lgan hissiy va semantik ta'sirni yaratish imkonini beradi. Demak, tarjimon boshqa til "ruhi"ning mohiyatiga chuqur kirib borishi va boshqa madaniyat kodlari orqali predmetli matnning anglashilishiga yordam berishi lozim.

Bunday holatlarda samarali tarjima faqat kompleks yondashuv yordamida amalga oshirilishi mumkin, ya'ni lingvistik, madaniy, tarixiy, falsafiy va boshqa omillarni hisobga olgan holda bajarilishi zarur. Shu jihatdan, tarjima jarayonida pragmatik adaptatsiya muhim rol o'ynaydi. Masalan, tarjimon manba madaniyatiga xos ma'nolarni qabul qiluvchi auditoriya uchun tushunarli tarzda ifodalashi kerak. Jakobson (1959) o'zining tarjima nazariyasida lingvistik kodlarning transformatsiyasi haqida so'z yuritgan bo'lib, uning fikricha, tarjimon faqat so'zlarni emas, balki ularning orqasidagi ma'no tizimini ham tushunishi lozim³.

Bunga misol sifatida Abdurauf Fitrat, G'afur Gulom va boshqa adabiyotshunos olimlarning milliy koloritni saqlagan holda qilgan tarjimalarini keltirish mumkin. Masalan, Fitrat o'z tarjimalarida milliy ruhni saqlashga katta e'tibor qaratgan. Uning "Hind ixtilolchilari" asarining tarjimasida hind madaniyatining o'ziga xos iboralari va ruhiy holati juda aniq aks ettirilgan bo'lib, tarjimon tomonidan o'zbek tilidagi mos ifodalar topilgan. Shuningdek, u xalq maqollari va iboralarini tarjimada samarali qo'llagan, bu esa asarning milliy koloritini yo'qotmasdan yetkazish imkonini bergan.

G'afur G'ulom esa o'zbek adabiyotini jahon adabiyotiga tarjima qilishda ham, jahon adabiyotini o'zbek tiliga o'girishda ham o'ziga xos uslubga ega bo'lgan. Uning Pushkinning "Yevgeniy Onegin" asarini tarjima qilishdagi yondashuvi bunga yaqqol misoldir. U ruscha she'riy qofiyalar tizimini saqlash bilan birga, o'zbekcha poetik mazmun va milliy ohangni ham aslyatga mos ravishda kiritishga intilgan. Bu tarjima

³ Jakobson, Roman. Language in Literature. Великобритания: Belknap Press, 1987.p 428

nafaqat lingvistik jihatdan, balki poetik tafakkur nuqtai nazaridan ham muhim tajriba bo'lgan.

Tarjima nazariyasi jihatidan esa, Yujin Nayda (1964) tomonidan ilgari surilgan ekvivalent dinamik tarjima tamoyillari tarjimaning faqatgina lug'aviy jihatdan to'g'ri bo'lishini emas, balki uning ma'nosi va ta'sirchanligi jihatidan ham mos kelishini ta'kidlaydi⁴. Nayda “dinamik ekvivalentlik” tushunchasini ilgari surgan bo'lib, u matnni qabul qiluvchi auditoriya uchun eng tabiiy va tushunarli shaklda yetkazish zarurligini qayd etadi. Masalan, Bibliyaning turli tillarga tarjimasida u metaforalar va diniy atamalarni har bir til va madaniyatga mos tushadigan shaklda tarjima qilishga urg'u bergan. Shu jihatdan, tarjimon nafaqat so'zlarni, balki ular ortidagi semantik va madaniy yukni ham to'g'ri anglab, tegishli uslub va ifodalash vositalarini topishi zarur.

Tarixiy tarjima amaliyoti, shubhasiz, ikki professional tadqiqotchi – tarixchi va tarjimon faoliyat doirasiga kiradi. Biroq ta'lim tizimida professional tarjimonlarni tayyorlash fanlari qatoriga tarixiy fanlar kiritilmaydi, xuddi shuningdek, professional tarixchilar uchun tarjima nazariyasi va lingvistik fanlar yetarlicha o'qitilmaydi. Biroq yuqorida qayd etilganidek, tarixiy matnning adekvat tarjimasi ushbu davr va mamlakat tarixini chuqur bilishsiz, hamda tarjima faoliyatining ko'nikma va malakalariga ega bo'lmasdan to'g'ri amalga oshirilishi mumkin emas. Ushbu muammoni hal etishda tarixchi mutaxassislarga tarjimaning asosiy qonunlari va usullarini o'rgatish, tarjimonlarni esa tarix faniga chuqur singdirishdan ko'ra maqsadga muvofiqroq bo'lib tuyuladi.

Shunday qilib, tarixiy manbani tarjima qilish jarayonida nafaqat matnni yaxshi tushunish, balki quyidagilar ham zarur⁵:

1. manba tili va tarjima tilining leksikasi va grammatikasi, ularning lingvistik xususiyatlarini chuqur bilish;
2. informatsion mazmunni to'liq yetkazish qobiliyati: mazmunni imkon qadar to'laqonli ifodalash, madaniy va tarixiy kontekstni qayta yaratish;

⁴ Nida E. Towards a science of translating. Special reference to principles and procedures involved in Bible translating. Leiden, 1964

⁵ Ю.Е.Комлева. Проблемы и методы исторического перевода. ИСТОРИЧЕСКИЙ ПЕРЕВОД. 2008.

3. uslub, kompozitsiya va asl matn atmosferasini tiklash qobiliyati: yakuniy matn ravon o'qilishi, qisqartmalar, kinoyalar, idiomalar va aforizmlarning ma'nosi ochib berilishi lozim.

Ekvivalent dinamik tarjima nazariyasi asoschisi Y. Nayda (1964) tarixiy stilizatsiyaning muhimligini ta'kidlab, tarjimon faqat lug'aviy ekvivalentlarni emas, balki matnning kontekstual ruhini ham yetkazishi lozimligini qayd etgan. Masalan, Bibliyaning inglizcha tarjimalarida qadimgi ibroniy va yunon matnlaridagi poetik va ritmik tuzilmani saqlash uchun maxsus usullar qo'llangan.

Demak, tarixiy stilizatsiya tarjimada muhim usul bo'lib, u matnning davriga xos ruhini yetkazish, o'quvchiga o'sha zamon atmosferasini his qilish imkoniyatini taqdim etadi. Bu uslubni qo'llash tarjimondan chuqur lingvistik, madaniy va tarixiy bilimlarni talab qiladi.

Tarjimada strategiyalar turli vaziyatlarga qarab farqlanadi. Tadqiqotchilar tarixiy matnlarni tarjima qilishda ikki asosiy yondashuv mavjudligini ta'kidlaydilar: birinchisi – “asliyatdagi matn vaqtini yaqinlashtirish”, ya'ni tarixiy stilizatsiyadan foydalanish, ikkinchisi esa – matnni zamonaviylashtirish orqali “asliyatdagi matn vaqtini uzoqlashtirish”.

Ko'pchilik tadqiqotchilar tarixiy matn o'z davridagi o'quvchilar uchun ularning tili va uslubi asosida yozilganini hisobga olib, tarjima ham tarjimonning zamonaviy tili vositasida amalga oshirilishi lozimligini qayd etadilar. Shu bilan birga, ayrim leksik va grammatik birliklar tanlab ishlatilishi natijasida matn tarixiy ruhiyatini saqlab qolishi kerak.

Rus filologi V. S. Vinogradov “osovremenivanie” (zamonaviylashtirish) usuli matnning asliyatdagi funksional jonliligini saqlashga xizmat qilishini ta'kidlagan. Masalan, Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa” dostonlari tarjimasi chog'ida o'rta asr terminlarini zamonaviy o'quvchi tushunishi uchun moslashtirish talab etiladi. Agar “shahanshoh” so'zi “imperator” deb tarjima qilinsa, bu tarixiy kontekstni to'g'ri anglashga yordam beradi.

Boshqa olim, I. A. Kashkin, tarjimonning tarixiy matnni zamonaviy o'quvchining ko'zi bilan o'qish huquqiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, tarjimon tarixiy obrazni zamonaviy talqinda tushuntirishi, lekin ayni vaqtda matnning uslubiy o'ziga xosligini va tarixiy ishonchliligini saqlashi kerak. Masalan, Abdurauf Fitratning "Chin sevish" pyesasini tarjima qilishda qadimiy arabcha va forschga istilohlarni to'g'ridan-to'g'ri qoldirish yoki ularga izoh berish muhim muammolardan biri hisoblanadi. Agar bu iboralar zamonaviy muqobillari bilan almashtirilsa, o'quvchi matnni oson tushunadi, ammo badiiy ta'sir zaiflashishi mumkin.

Demak, tarixiy matnlarni tarjima qilishda tarjimonning asosiy maqsadi – matn mazmunini saqlagan holda uni zamonaviy o'quvchi uchun tushunarli qilishdir. Bu esa tarjimondan lingvistik bilim bilan birga madaniy va tarixiy anglashni ham talab qiladi.

Tarixiy tarjima strategiyalarining eng maqbul varianti, shubhasiz, modernizatsiya va tarixiylashtirish o'rtasidagi "oltin o'rtalik" bo'lib, bu yondashuv ikkala uslubning elementlarini muvozanatli tarzda uyg'unlashtirishni talab etadi. Tarjima jarayonida matnning tarixiy kontekstini saqlash bilan birga, uni zamonaviy o'quvchiga tushunarli shaklda yetkazish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- [1] N.M.O'rmonova. Tarjimada tarixiy-arxaik leksikani aks ettirish prinsiplari va tarjima aniqligi (o'zbek klassik adabiyotidan fransuz tiliga qilingan tarjimalar tahlili asosida), Fil.fan.nomzodi dissertatsiyasi, Toshkent, 2008
- [2] Ю.Е.Комлева. Проблемы и методы исторического перевода. ИСТОРИЧЕСКИЙ ПЕРЕВОД. 2008. Стр, 202
- [3] Jakobson, Roman. Language in Literature. Великобритания: Belknap Press, 1987. p 428
- [4] Nida E. Towards a science of translating. Special reference to principles and procedures involved in Bible translating. Leiden, 1964
- [5] Ю.Е.Комлева. Проблемы и методы исторического перевода. ИСТОРИЧЕСКИЙ ПЕРЕВОД. 2008.